O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI DAVLAT SIYOSATI VA BOSHQARUVI AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.04/2025.27.12.S.01.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

PAK POLINA VADIMOVNA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA JAMOATCHILIK NAZORATI FAOLIYATI DOIRASIDA NNTLARNING O‘ZARO HAMKORLIGI ISTIQBOLLARI

22.00.02 – Ijtimoiy tuzilish, ijtimoiy institutlar va turmush tarzi sotsiologiyasi

SOTSIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent– 2026

UDK: 351.746:061.2(575.1)

Sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по социологическим наукам

Contents of Dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on sociological sciences

Pak Polina Vadimovna
O‘zbekiston respublikasida jamoatchilik nazorati faoliyati doirasida NNTlarning o‘zaro hamkorligi istiqbollari.....3

Пак Полина Вадимовна
Перспективы взаимодействия ННО в рамках функционирования общественного контроля в Республике Узбекистан.....29

Pak Polina Vadimovna
Prospects for the Interaction of Non-Governmental Organizations within the Framework of Public Oversight in the Republic of Uzbekistan.....55

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 61

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI DAVLAT SIYOSATI VA BOSHQARUVI AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.04/2025.27.12.S.01.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

PAK POLINA VADIMOVNA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA JAMOATCHILIK NAZORATI FAOLIYATI DOIRASIDA NNTLARNING O‘ZARO HAMKORLIGI ISTIQBOLLARI

22.00.02 – Ijtimoiy tuzilish, ijtimoiy institutlar va turmush tarzi sotsiologiyasi

SOTSIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent– 2026

Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD/S93 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.dba.uz/uz/tadqiqotchilarga/ilmiy-kengash) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Tashmukhamedova Diloram Gafurjanovna** sotsiologiya fanlari doktori (DSc)
Rasmiy opponentlar:	**Matibayev Tashpulat Boltabayevich** sotsiologiya fanlari doktori, professor
	Saifnazarov Ismail Saifnazarovich falsafa fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**"Ijtimoiy fikr" respublika jamoatchilik fikrini o'rganish Markazi**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi huzuridagi DSc.04/2025.27.12.S.01.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil « « _____ kuni soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 45. Tel.: (99871) 232-60-80; faks: (99871) 232-60-66; e-mail: info@dba.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (420-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 45. Tel.: (99871) 232-61-25).

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «____»_____ kuni tarqatildi.
(2026 yil «____»_____ dagi № _____raqamli reyestr bayonnomasi).

M.B.Bekmurodov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, sotsiologiya fanlari doktori, professor

Sh.M.Sodiqova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, sotsiologiya fanlari doktori, professor

T.B.Matibayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, sotsiologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Zamonaviy dunyoda fuqarolarning qaror qabul qilish jarayonlarida ishtirok etish mexanizmlarini kengaytirish borasida barqaror tendensiya kuzatilmoqda, bunda fuqarolik jamiyati institutlari, shu jumladan, nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) jamiyat va davlat o‘rtasida vositachi sifatida alohida rol o‘ynaydi. Hokimiyatning demokratlashuvi, ochiqligi va hisobdorligi jarayonlarining kuchayishi ochiqlik va o‘zaro hamkorlik tamoyillari asosida boshqaruvning asosiy elementi sifatida jamoatchilik nazoratini institutsionallashtirish bilan birga kechmoqda[1]. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, aynan nodavlat notijorat tashkilotlari orqali amalga oshiriladigan jamoatchilik nazorati vositalari orqali hokimiyat institutlariga ishonchni shakllantirish, korrupsiyaning oldini olish va davlat xizmatlari sifatini oshirish mumkin. Sharqiy Yevropa, Lotin Amerikasi va Janubi – Sharqiy Osiyo mamlakatlarida davlat-jamoat platformalari va NNTlar bilan hamkorlik ijtimoiy mas’uliyatni ta’minlash bo‘yicha milliy strategiyalarning ajralmas qismiga aylandi.

Jahonning ko‘plab yetakchi ilmiy markazlarida nodavlat notijorat tashkilotlarining davlat tuzilmalari bilan o‘zaro hamkorligi jamoatchilik nazorati institutlarini rivojlantirish kontekstida chuqur o‘rganilmoqda. Xususan, Stenford universitetining Demokratiya, taraqqiyot va huquq ustuvorligi markazida (CDDRL) demokratik boshqaruv, hisobdorlik va fuqarolarning ishtirok etish mexanizmlariga oid tadqiqotlar olib borilmoqda[2]. Davlat boshqaruvi va huquq sohasidagi yetakchi ilmiy jurnallarda esa fuqarolar hamda fuqarolik jamiyati institutlarining jamoatchilik nazorati tizimlaridagi ishtiroki, ularning hokimiyat organlari bilan o‘zaro hamkorligi va jamoat jarayonlarini boshqarishga qo‘shgan hissasiga bag‘ishlangan empirik va nazariy tadqiqotlar muntazam nashr etilmoqda[3]. Ushbu tadqiqotlar O‘zbekiston Respublikasi kabi o‘tish iqtisodiyotidagi mamlakatlarda jamoatchilik nazoratini institutsionallashtirish jarayonlarini tushunish uchun dolzarb bo‘lgan muhim nazariy-metodologik asosni shakllantiradi.

«Yangi O‘zbekiston»ni barpo etishning yangi bosqichi va 2023 yilda tasdiqlangan «O‘zbekiston – 2030» taraqqiyot strategiyasida fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, qarorlar qabul qilish jarayonlarida NNT ishtirokini kengaytirish, shuningdek, jamoatchilik nazoratining samarali mexanizmlarini joriy etish ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan.

NNTlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, dolzarb ijtimoiy muammolarni hal etish va konstruktiv takliflarni ishlab chiqishga qaratilgan ijtimoiy ahamiyatga molik tashabbuslarni ishlab chiqish va amalga oshirishda ularning

---

[1] Fung A. Varieties of Participation in Complex Governance // Public Administration Review. – 2006. – Vol. 66, suppl. 1. – P. 66–75; Fox J.A. Social Accountability: What Does the Evidence Really Say? // World Development. – 2015. – Vol. 72. – P. 346–361;Bovens M. Analysing and Assessing Accountability: A Conceptual Framework // European Law Journal. – 2007. – Vol. 13, № 4. – P. 447–468.

[2] Stanford University. Center on Democracy, Development and the Rule of Law (CDDRL). Research Programs. – URL: https://cddrl.fsi.stanford.edu/research (дата обращения: 15.11.2026).

[3] 1. Fung A. Varieties of Participation in Complex Governance // Public Administration Review. – 2006. – Vol. 66, Issue s1. – P. 66–75. – DOI: 10.1111/j.1540-6210.2006.00667.x
2. Fox J.A. Social Accountability: What Does the Evidence Really Say? // World Development. – 2015. – Vol. 72. – P. 346–361. – DOI: 10.1016/j.worlddev.2015.03.011

faolligini rag‘batlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu o‘rinda, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan xospislar kabi muassasalar tashkil etish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va barqaror faoliyatini ta’minlash bilan bog‘liq loyihalarga grantlar ajratish amaliyotini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi[4]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqida ta’kidlaganidek, inson kapitalini rivojlantirish mamlakat o‘z oldiga qo‘ygan strategik vazifalardan biri bo‘lib, barcha uchun ochiq va sifatli ta’lim kambag‘allikni tugatishning eng samarali omili hisoblanadi[5]. Bu vazifalar mamlakat ichki siyosatida ham o‘z ifodasini topdi: 2024 yil Yoshlar va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash yili deb e’lon qilindi, bu aholini davlat boshqaruvi jarayonlariga jalb qilish, ish o‘rinlari yaratish, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish hamda fuqarolik faolligini rag‘batlantirishning ustuvorligini ta’kidlaydi.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti ma’lum darajada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi, 2021 yil 4 martdagi PF-6181-son «2021-2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi, 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son «O‘zbekiston – 2030» strategiyasi to‘g‘risida»gi va 2025 yil 21 apreldagi PF-71-son «Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi farmonlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Mazkur jarayonlarning huquqiy asosini O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 25 sentyabrdagi O‘RQ-376-son «Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida»gi, 2007 yil 3 yanvardagi O‘RQ-76-son «Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida»gi, 2003 yil 29 avgustdagi 527-II-son «Jamoat fondlari to‘g‘risida»gi, 2007 yil 2 maydagi O‘RQ-96-son «Homiylik to‘g‘risida»gi qonunlari hamda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini tartibga soluvchi boshqa me’yoriy hujjatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish muammolari, jamoatchilik nazorati tizimida nodavlat notijorat tashkilotlarining (NNT) o‘rni, shuningdek, ularning davlat tuzilmalari bilan o‘zaro

[4] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 21 февралдаги «Ўзбекистон - 2030» стратегиясини «Ёшлар ва бизнесни қўллаб-кувватлаш йили"да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида»ги ПФ-37-сон Фармони. [Электрон ресурс] - Фойдаланиш режими: https://lex.uz/uz/docs/6811938

[5] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош ассамблеясининг 78-сессиясидаги нутқи. Нью-Йорк, 2023 йил 19 сентябрь [Электрон ресурс]. – URL: https://gov.uz/uz/news/view/2716 (мурожаат санаси: 17.11.2026).

munosabatlarining o‘ziga xos xususiyatlari turli mamlakatlar va davrlarda ko‘plab mutafakkirlar va tadqiqotchilarning ishlarida ko‘rib chiqilgan.

Xorijiy olimlar tadqiqotlarida fuqarolik jamiyatining zamonaviy tushunchasiga yaqin g‘oyalar Sharq faylasuflari, xususan, Forobiyning ijtimoiy tartibning asosi sifatida axloqiy ittifoq va hamkorlik zarurligi ta’kidlan «Fozil odamlar shahri» asarida kuzatiladi[6]. G‘arbiy Yevropada ijtimoiy sheriklik va adolat g‘oyalarini Sh. Fure va R. Ouenlar rivojlantirgan, ular davlatning ijtimoiy mas’uliyati va aholining zaif qatlamlari manfaatlarini himoya qilish modellarini taklif etishgan[7]. XX asrda fuqarolik jamiyati nazariyasi rivojiga E.Gellner, R.Darendorf, J.Koen, Yu.Xabermas, I.Shapiro, F.Shmitter, A.Etsioni va boshqalar salmoqli hissa qo‘shdilar.[8] Masalan, Yu. Xabermas o‘zining kommunikativ harakat nazariyasi va jamoat maydoni konsepsiyasida demokratik nazoratning asosi sifatida fuqarolar va hokimiyat o‘rtasidagi oqilona muloqotning ahamiyatini ta’kidlagan[9]. T. Parsons o‘zining AGIL-modeli[10]da fuqarolik institutlarini jamiyatning integratsiyalovchi kichik tizimining bir qismi sifatida tahlil qilgan. E.Dyurkgeym, o‘z navbatida, ijtimoiy institutlarni jamoaviy ongning namoyon bo‘lishi va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash usuli sifatida talqin qildi[11]. P. Burde «ijtimoiy kapital» tushunchasini rivojlantirib, fuqarolik jamiyatini ramziy nufuz va resurslar uchun kurash maydoni sifatida ko‘rishni taklif qildi[12]. Fuqarolik ishtirokiga zamonaviy yondashuvlar kraudsorsing, onlayn aksiyalar, elektron petitsiyalar kabi faollik shakllariga e’tibor qaratuvchi raqamli fuqarolik jamiyati konsepsiyalarini o‘z ichiga oladi, bu esa pandemiya va pandemiyadan keyingi voqelik sharoitida dolzarblashdi[13]. Rossiya ilmiy an’anasida fuqarolik jamiyati N.A. Berdyaev, P.I. Novgorodsev, A.N. Radishev, B.N. Chicherin, S.L. Frank, V.S. Solovyov va boshqalarning ishlarida tadqiq etilgan.[14] Postsovet davrida NNTlar faoliyati, fuqarolik faolligi va jamoatchilik nazorati institutlari bo‘yicha amaliy tadqiqotlar faollashdi, jumladan, L.M.Drobijeva, M.K.Gorshkov, V.I.Yadov, Ye.V.Toshchenko, A.I.Solovyov, A.V.Obolonskiy va boshqa mualliflar ishlarida.[15] Ularning ishlari o‘tish davri jamiyati sharoitida fuqarolik ishtiroki shakllarining o‘zgarishini, jamoatchilik nazoratining legitimligi va NNTlarni rasmiylashtirishning muammolarini tahlil qilish imkonini beradi.

A.Avloniy, M.Behbudiy, A.Fitrat, A.Qodiriy, Cho‘lpon kabi o‘zbek olimlari ma’rifat, madaniyat va modernizatsiya ahamiyatini jamiyat taraqqiyotining asosi sifatida ta’kidlaganlar[16]. O‘zbekistondagi zamonaviy ilmiy muhit diskursi M.B.

---

[6] Аль-Фараби. Трактат «Жители добродетельного города». - Ташкент: Фан, 1993.
[7] Fourier Ch. "Théorie de l’unité universelle" (1822); Owen R. "A New View of Society" (1813).
[8] Gellner E. "Conditions of Liberty"; Etzioni A. "The Spirit of Community"; Schmitter P.C. "What Democracy Is... and Is Not".
[9] Habermas J. "The Structural Transformation of the Public Sphere", MIT Press, 1991.
[10] Parsons T. "The Social System". Free Press, 1951.
[11] Durkheim E. "De la division du travail social". Paris, 1893.
[12] Bourdieu P. "La distinction", Paris, 1979.
[13] Shirky C. "Here Comes Everybody: The Power of Organizing Without Organizations", Penguin, 2008.
[14] Радищев А.Н. "Путешествие из Петербурга в Москву"; Бердяев Н.А. "Философия свободы".
[15] Горшков М.К., Дробижева Л.М., Тощенко Е.В. и др. См. сборник «Гражданское общество в современной России», ИСПИ РАН, 2019.
[16] Фитрат А., Авлони А., Чулпон Ч. См. Антология узбекской просветительской мысли. - Ташкент: Фан, 2012.

Bekmurodov[17], T.B. Matibaev, A.P. Seitova, F.Ya. Parmanova, A.A. Umarov, S.S. Otamurodov, D.G. Tashmuxamedova, I. Saifnazarov, X.S. Hayitov, A.E. Yo‘ldashev, A.J. Xolbekov va boshqa olimlar tadqiqotlari bilan tavsiflanadi. Masalan, M.B. Bekmurodovning «Jamiyatning ijtimoiy-madaniy rivojlanishida jamoatchilik fikrining o‘rni» asarida ijtimoiy-madaniy muhitni shakllantirishda jamoatchilik fikrining ahamiyati ko‘rib chiqilgan bo‘lsa, D.G. Tashmuxamedovaning tadqiqotida O‘zbekistonda jamoatchilik fikri va texnologiyalarning ijtimoiy ong transformatsiyasiga ta’sirini tushunishga yordam beradigan yoshlarning ijtimoiy tarmoqlardagi raqamli xulq-atvorining o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan[18]. Bundan tashqari, T.B. Matibaevning «Korrupsiya – jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta’sir etuvchi omil» tadqiqoti, shuningdek, mahalliy hokimiyat vakillik organlari faoliyatini faollashtirishning yangi yondashuvlariga bag‘ishlangan asari boshqaruv masalalari va ijtimoiy muammolarni hal qilishda fuqarolik jamiyatining roli bo‘yicha muhim g‘oyalarni ilgari suradi. Ushbu asarlar NNTning institut sifatidagi ta’siri va uning mamlakatdagi sotsiologik va madaniy o‘zgarishlar doirasida ijtimoiy ongning o‘zgarishiga ta’sirini tahlil qilish istiqbollarini sezilarli darajada kengaytiradi[19]. Ta’kidlash joizki, ushbu tadqiqotchilarning ilmiy xulosalari va tavsiyalari o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan, ular tomonidan qo‘llanilgan ijtimoiy jarayonlarni anglash va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish usullari zamonaviy hayotning o‘zgarish xususiyatlarini qidirishga yordam beradi. Shu bilan birga, ijtimoiy jarayonlar o‘ta dinamik xususiyatga ega bo‘lib, ular yangi sharoit va yangi formatlarda yuzaga keladi, ba’zan ularni o‘z vaqtida payqash, tahlil qilish va ilmiy izohlash imkoni bo‘lmaydi. Shu bois, fuqarolik jamiyati rivojlanishining har bir bosqichi va unda kechayotgan ijtimoiy jarayonlar ilmiy tahlilga o‘ziga xos yondashuvni taqozo etadi. Olingan nazariy va tahliliy materiallar asosida shuni ta’kidlash mumkinki, Yangi O‘zbekistonni barpo etish doirasida fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonidagi ijtimoiy hodisalarning sotsiologik xususiyatlari bo‘yicha maxsus tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmagan.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazorati mexanizmlari shakllanishidagi zamonaviy tendensiyalar va omillarni nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati nuqtai nazaridan, empirik ma’lumotlarga asoslanib, sotsiologik tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

«jamoatchilik nazorati» tushunchasiga nazariy-metodologik yondashuvlarni yoritib berish va uni amalga oshirishda NNTning rolini aniqlash;

fuqarolik jamiyatining zamonaviy konsepsiyalari va ularning NNTning jamiyat hamda davlat bilan o‘zaro aloqasi uchun ahamiyatini tahlil etish;

---

[17] Бекмуродов М.Б. Ижтимоий тараққиёт ва жамоатчилик фикри // Халқ таълими. – 1997, Бекмурадов М.Б. Роль общественного мнения в социально-культурном развитии общества: автореф. дис. ... канд. социол. наук. – Ташкент, 1997.

[18] Ташмухамедова Д.Г. Социальные сети и молодежь в свете научных исследований. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/sotsialnye-seti-i-molodezh-v-svete-nauchnyh-issledovaniy

[19] Матибаев Т.Б. "Коррупция – жамият тараққиётига салбий таъсир этувчи омил". - Тошкент, 2021. https://cyberleninka.ru/article/n/korruptsiya-zhamiyat-tara-iyotiga-salbiy-tasir-etuvchi-omil

O‘zbekistondagi islohotlar jarayonlari kontekstida NNTning ijtimoiy institut sifatidagi tuzilmasi va vazifalarini o‘rganish;

NNT va jamoatchilik nazorati institutlari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani o‘rganish;

O‘zbekistonda NNTning shakllanishi va rivojlanishining asosiy bosqichlarini xalqaro tajribani hisobga olgan holda tahlil qilish;

aholining jamoatchilik nazorati sohasidagi NNT faoliyatiga bo‘lgan ishonchi, jalb etilganligi va xabardorligi darajasini aniqlashga qaratilgan empirik sotsiologik tadqiqot o‘tkazish;

NNTning davlat tuzilmalari, mahallalar, siyosiy partiyalar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan o‘zaro hamkorlik mexanizmlarini baholash;

raqamlashtirish va yangi tahdidlarni hisobga olgan holda jamoatchilik nazorati tizimida NNTlarning o‘zaro hamkorlik samaradorligini oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob’ekti jamoatchilik nazorati tizimida ishtirok etish salohiyatiga ega bo‘lgan O‘zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari.

Tadqiqotning predmeti jamoatchilik nazoratini amalga oshirish kontekstida NNTning davlat va fuqarolik jamiyati institutlari bilan o‘zaro hamkorligi shakllari, omillari va shart-sharoitlaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tahlil, sintez, umumlashtirish, qiyoslash, sotsiologik tadqiqotlarning amaliy usullari (anketa so‘rovi, suhbat, kontent-tahlil), empirik ma’lumotlarning ikkilamchi tahlili, tizimli yondashuv, o‘zaro aloqadorlik tamoyili, NNTlar faoliyatini davlat strategiyasi vazifalariga muvofiqligi nuqtayi nazaridan baholash usuli kabi usullar qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

fuqarolik jamiyatida NNTlarning ko‘p o‘lchovli o‘zaro aloqa tizimining moslashuvchan modeli asoslab berilgan, u an’anaviy va zamonaviy tendensiyalarning uyg‘unlashuvi asosida shakllangan bo‘lib, jamiyat ongining axloqiy-mafkuraviy tamoyillariga yo‘naltirilgan va samarali ijtimoiy o‘zaro ta’sir mexanizmlarini ta’minlaydi;

mamlakat fuqarolik jamiyatining institutsional xususiyatlari, demokratik islohotlar bosqichlari va boshqaruvni raqamlashtirish tendensiyalarini hisobga olgan holda O‘zbekiston jamoatchilik nazorati tizimida NNTlarning o‘zaro hamkorligining konseptual modeli ishlab chiqilgan;

NNTning rolini nazorat tartibotlarining rasmiy ishtirokchisidan davlat qarorlarini tayyorlash, monitoring qilish va tuzatish jarayonida, shu jumladan, mahalliy darajada tashabbuskor hamkorlik qilishda to‘laqonli ishtirokchiga aylantirish zarurati asoslab berilgan;

O‘zbekistonda «fuqarolar – NNT – davlat» hamkorligi doirasida amalga oshirilayotgan raqamli ijtimoiy faollik shakllari, jumladan, elektron petitsiyalar, onlayn muhokamalar, kraudsorsing platformalari va raqamli jamoatchilik kuzatuvi tizimlashtirilgan bo‘lib, bu aholining jamoatchilik nazorati jarayonida ishtirok etishining yangi ijtimoiy mexanizmlarini aks ettiradi va raqamli hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati va ularning o‘zaro hamkorligi sotsiologik tahlil qilindi, bu ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlarda NNT ishtirokining samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi;

demokratik o‘zgarishlar modellarini ishlab chiqish va jamoatchilik nazorati mexanizmlarini takomillashtirishda foydalanish mumkin bo‘lgan xorijiy va mahalliy tajribaning tizimli-tuzilmaviy tahliliga asoslangan, NNTlar o‘zaro hamkorligi qonuniyatlari va xususiyatlari aniqlangan;

O‘zbekistonda innovatsion rivojlanishning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilindi, bu raqamli transformatsiya va ijtimoiy islohotlar sharoitida fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini optimallashtirish va muvofiqlashtirish bo‘yicha takliflarni shakllantirish imkonini berdi;

jamoatchilik nazorati samaradorligini oshirish va barqaror ijtimoiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash uchun NNTning davlat organlari, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish institutlari va fuqarolik jamiyatining boshqa sub’ektlari bilan o‘zaro hamkorligi mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi turli aholi guruhlari vakillari ishtirokida o‘tkazilgan empirik sotsiologik so‘rov, me’yoriy-huquqiy hujjatlar tahlili, xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-nazariy anjumanlarda natijalarning muhokamasi, OAK tavsiya etgan milliy va xorijiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, shuningdek, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilishi hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, unda jamoatchilik nazorati tizimida NNTlarning o‘zaro ta’sirini tahlil qilish bo‘yicha taklif etilgan sotsiologik yondashuvlar, shuningdek, raqamli ishtirokning aniqlangan ijtimoiy mexanizmlari fuqarolik jamiyatini o‘rganishning ilmiy-metodologik bazasini boyitadi. Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda demokratik islohotlar sharoitida sodir bo‘layotgan ijtimoiy jarayonlarning tizimli-tarkibiy tahlilini rivojlantirishga hissa qo‘shadi. Olingan ilmiy xulosalar va empirik ma’lumotlardan «Sotsiologiya», «Siyosiy sotsiologiya», «Ijtimoiy jarayonlarni modellashtirish» fanlari bo‘yicha darsliklar, o‘quv dasturlari va uslubiy qo‘llanmalar tayyorlash va yangilashda, shuningdek, «Fuqarolik jamiyatini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari», «NNTning ijtimoiy funksiyalari», «NNT jamoatchilik nazorati instituti sifatida» kabi maxsus kurslarni ishlab chiqishda foydalanish mumkin. Natijalar milliy va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya, seminar va simpoziumlarda muhokama qilish uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari transformatsiyasi sharoitida NNT faoliyatini optimallashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalardan davlat va jamoat tuzilmalari fuqarolar bilan o‘zaro hamkorlik mexanizmlarini rivojlantirish uchun foydalanishlari mumkin. Ushbu tavsiyalar, shuningdek, «O‘zbekiston – 2030» taraqqiyot strategiyasida belgilangan jamoatchilik nazoratining samaradorligini oshirish va fuqarolarning qarorlar qabul qilish jarayonidagi ishtirokini kuchaytirish bo‘yicha vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot doirasida fuqarolik jamiyatida NNTlarning o‘zaro hamkorligining an’anaviy va zamonaviy tendensiyalar sinteziga asoslangan, jamoatchilik ongining axloqiy-mafkuraviy tamoyillariga yo‘naltirilgan hamda samarali ijtimoiy hamkorlik mexanizmlarini ta’minlovchi ko‘p o‘lchovli tizimining moslashuvchan modelini ochib beruvchi ilmiy qoidalar ishlab chiqildi va asoslab berildi. Mazkur ilmiy qoidalar Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi faoliyatiga joriy etildi (Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi Siyosiy Kengashi Ijroiya qo‘mitasining 2022-yil 16-martdagi 01-27/139-sonli ma’lumotnomasi). Natijada fuqarolik jamiyatida NNTlarning o‘zaro hamkorligining an’anaviy va zamonaviy rivojlanish tendensiyalari uyg‘unligiga asoslangan murakkab tizimi qonuniyatlari tahlili, shuningdek, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va ijtimoiy hayotni innovatsion o‘zgartirish konsepsiyalari asosida olingan xulosalar partiya faoliyatida, xususan, 2021-yilgi saylov kampaniyasi davrida sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazishda inobatga olindi;

O‘zbekistonda NNTlarning jamoatchilik nazorati tizimidagi o‘zaro hamkorligining mamlakat fuqarolik jamiyatiga xos institutsional xususiyatlar, demokratik islohotlar bosqichlari va boshqaruvni raqamlashtirish tendensiyalarini hisobga oluvchi konseptual modeliga oid taklif O‘zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi faoliyatiga joriy etildi (O‘zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasining 2022-yil 13-yanvardagi 04-05/013-22-sonli ma’lumotnomasi). Natijada dissertatsiyada asoslab berilgan qoidalar Assotsiatsiya faoliyatida demokratik islohotlarning konseptual modeli sifatida inobatga olindi, bunda NNT instituti muhim element sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, zamonaviy demokratik o‘zgarishlar nuqtayi nazaridan fuqarolik jamiyati transformatsiyasi qonuniyatlarini anglashda sotsiologik tadqiqotlarning o‘rni va ahamiyatiga oid xulosalar ham hisobga olindi;

NNTlarning rolini nazorat tartib-taomillarining rasmiy ishtirokchisidan davlat qarorlarini tayyorlash, monitoring qilish va ularga tuzatishlar kiritish jarayonining to‘laqonli subyektiga aylantirish, shu jumladan, mahalliy darajada tashabbuskorlik asosida o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish zarurati to‘g‘risidagi taklif Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi (Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi Siyosiy Kengashi Ijroiya qo‘mitasining 2022-yil 16-martdagi 01-27/139-sonli ma’lumotnomasi), shuningdek, O‘zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi (O‘zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasining 2022-yil 13-yanvardagi 04-05/013-22-sonli ma’lumotnomasi) faoliyatiga joriy etildi. Natijada partiyaning dasturiy hujjatlarida boshqaruv funksiyalarini bevosita xalq, jamoat birlashmalari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlariga bosqichma-bosqich o‘tkazish to‘g‘risidagi xulosa shakllantirildi. Tadqiqot natijalari, shuningdek, O‘zbekiston jamoatchilik kengashlari forumidagi muhokamalarda o‘z aksini topdi. Forum yakunlari bo‘yicha davlat boshqaruvi organlari huzuridagi jamoatchilik kengashlari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqildi;

O‘zbekistonda «fuqarolar – NNT – davlat» o‘zaro hamkorligi doirasida amalga oshirilayotgan raqamli ijtimoiy faollikning tizimlashtirilgan shakllari, jumladan, elektron petitsiyalar, onlayn muhokamalar, kraudsorsing platformalari va raqamli jamoatchilik kuzatuviga oid takliflar «Ijtimoiy fikr» Respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi faoliyatiga joriy etildi («Ijtimoiy fikr» Respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish markazining 2022-yil 23-fevraldagi 01-16/45-sonli ma’lumotnomasi). Natijada tadqiqot yakunlarining bir qismi Markaz tomonidan sotsiologik axborotni yig‘ish, qayta ishlash, tahlil qilish va taqdim etishning zamonaviy axborot texnologiyalarini ishlab chiqish, moslashtirish hamda joriy etishda foydalanildi. Bundan tashqari, respondentlarning fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatiga bergan baholariga oid savollarni o‘z ichiga olgan tadqiqot natijalari qiyosiy tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 14 ta ilmiy-amaliy anjuman va seminarlarda, jumladan, 10 ta respublika va 4 ta xalqaro anjumanlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 23 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, xorijiy jurnallarda 2 ta ilmiy maqola, 1 ta uslubiy qo‘llanma (hammualliflikda), shuningdek, 10 ta respublika anjumani materiallarida 12 ta va 4 ta xalqaro anjuman materiallarida 4 ta tezis chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, har biri uch paragrafdan iborat uchta bob, xulosa, taklif va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 167 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi asoslangan, dissertatsiyaning nazariy-metodologik asoslari belgilangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob’ekti, predmeti va usullari ko‘rsatilgan. Tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi qayd etilgan. Muammoning ilmiy o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, ilmiy yangilik unsurlari shakllantirilib, ishning asosiy ilmiy va amaliy natijalari, ularning aprobatsiyasi hamda chop etilishi haqidagi ma’lumotlar taqdim etilgan.

Dissertatsiyaning **«NNTlarning ijtimoiy islohotlar va o‘zgarishlar bilan o‘zaro ta’siri jarayonini o‘rganishning nazariy-metodologik asoslari»** deb nomlangan birinchi bobida modernizatsiya sharoitida fuqarolik jamiyati va uning transformatsiyasini tushunishga oid asosiy nazariy yondashuvlar tadqiq etilgan. Fuqarolik jamiyati to‘g‘risidagi tasavvurlar evolyutsiyasi, uning tuzilishi, davlat va jamiyat o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashdagi o‘rni o‘rganilgan.

Fuqarolik jamiyatining muhim elementi sifatida NNTlarning roliga, ularning institutsional mohiyatiga, maqsadlariga, vazifalariga va faoliyat turlariga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, NNTlarning turli ijtimoiy va davlat tuzilmalari bilan o‘zaro hamkorligi mexanizmlari ko‘rib chiqilgan, ularning ijtimoiy o‘zgarishlarni

ilgari surish va jamoatchilik nazoratini shakllantirishdagi ishtirokining ahamiyati ta’kidlangan. Bob O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar sharoitida NNTlarning amaliy faoliyatini tahlili uchun konseptual asos yaratadi.

«Fuqarolik jamiyatini shakllantirish nazariyasi va amaliyoti» deb nomlangan birinchi paragrafda tadqiqotchi ijtimoiy fanlar, ayniqsa, sotsiologiya, siyosatshunoslik va falsafa fanlarida asosiy o‘rin egallagan «fuqarolik jamiyati» tushunchasi mohiyatini ochib bergan. Uni o‘rganish G‘arb tafakkurining mumtoz merosi bilan bir qatorda, globallashuv, raqamlashtirish va davlat-ijtimoiy munosabatlarning o‘zgarishi jarayonlarini inobatga oluvchi zamonaviy yondashuvlar bilan ham bog‘liq.

Fuqarolik jamiyati konsepsiyasining kelib chiqish manbasi antik davr falsafasiga borib taqaladi. Hatto, Aristotel ham o‘z mulohazalarida fuqarolarning ishtiroki zarurligini ko‘rsatib, ijtimoiy hayotning asosi sifatida jamoaviy boshqaruv, axloqiylik va ezgulikning muhimligini alohida ta’kidlagan. Keyinchalik fuqarolik ishtiroki g‘oyasi Yevropa tafakkuri doirasida G. Grotsiy va T. Gobbsning tabiiy huquq g‘oyalaridan boshlab, fuqarolik jamiyatini mulk huquqi va shaxsiy erkinliklar kafolati bilan bog‘lagan J.Lokkkacha o‘zgarib bordi. J.Lokk fuqarolik jamiyatini huquq va erkinliklarni himoya qilish maqsadida yaratilgan qonunlarga bo‘ysunuvchi kishilarning birlashuv shakli sifatida ta’riflagan. G. Gegel, o‘z navbatida, fuqarolik jamiyatini oila va davlat o‘rtasidagi oraliq soha sifatida ko‘rib chiqib, uni shaxsiy manfaatlarni amalga oshirish maydoni deb hisoblagan[20]. Uning yondashuvi marksizm an’anasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi, unda fuqarolik jamiyati sinfiy tuzilma va kapitalistik tuzum ziddiyatlarining in’ikosi sifatida qabul qilinadi.

Dissertatsiyada muallif fuqarolik jamiyatining ijtimoiy hayotning mustaqil sohasi sifatida shakllanishini ijtimoiy differensiatsiya, institutsionallashuv jarayonlari va fuqarolarning o‘zini o‘zi tashkil etishning nodavlat shakllari roli kuchayishi bilan bog‘laydi. Masalan, strukturaviy funksionalizm asoschilaridan biri T. Parsons «sotsietal hamjamiyat» atamasini ilmiy muomalaga kiritdi, uni iqtisodiyot, siyosat va madaniyatdan tashqarida faoliyat yurituvchi jamiyatning alohida quyi tizimi sifatida ko‘rib chiqdi.

Uning konsepsiyasiga ko‘ra, jamiyatning tabaqalanishi sanoat, demokratik va ta’lim inqiloblari natijasi bo‘lib, bu fuqarolik jamiyatining jamiyat faoliyatining mustaqil sohasi sifatida ajralib chiqishiga yordam bergan[21]. Shuningdek, muallif fuqarolik jamiyati nazariyasi rivojlanishiga A. de Tokvil hal qiluvchi hissa qo‘shganini ta’kidlaydi, u barqaror demokratiyaning asosi sifatida ixtiyoriy uyushmalar va fuqarolarning faol ishtirokining rolini chuqur tahlil qilgan. Uning qarashlari T. Peynning liberal individualizmi va G. Gegelning davlat absolyutizmi o‘rtasida oraliq pozitsiyani egallaydi. Tokvilning fikricha, demokratiyani tenglik, birdamlik va ishtirokchilikka asoslangan gorizontal aloqalarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi[22].

[20] Гегель Г. Философия права. - М., 1990. - С. 228

[21] Parsons, T. *The System of Modern Societies*. Englewood Cliffs, N.J.: Prentice-Hall, 1971. - P. 36–47.

[22] Tocqueville, A. *Democracy in America*. Trans. Harvey Mansfield and Delba Winthrop. Chicago: University of Chicago Press, 2000.

XX-XXI asrlarda global xavf-xatarlar va anomiyani yengib o‘tish uchun transmilliy hamkorlik zarurligini ta’kidlovchi «jahon fuqarolik jamiyati» (R. Darendorf, E. Giddens) g‘oyasi ilmiy muomalaga kiritiladi.

Darendorf fuqarolik jamiyatini hurmat va o‘zaro ta’sir me’yorlarini shakllantiruvchi avtonom tuzilmalar majmui sifatida talqin qilgan, Giddens esa davlat va fuqarolik faolligi tarmoqlari o‘rtasidagi muloqotning roliga alohida urg‘u bergan[23]. Shu bilan birga, E.Tofflerning fikricha, axborotlashgan jamiyat sharoitida fuqarolik jamiyati sub’ektlari doirasi tarmoq hamjamiyatlari, raqamli platformalar va onlayn uyushmalar hisobiga kengayib bormoqda. M. Fuko hokimiyatni faqat davlat institutlarida mujassamlashgan emas, balki ijtimoiy amaliyotlarni qamrab olgan taqsimlangan munosabatlar tarmog‘i sifatida ko‘rib chiqqan[24]. K. Marks tomonidan taqdim etilgan marksistik an’ana dastlab fuqarolik jamiyatini burjua davlatining rivojlanish bosqichi sifatida tan olgan, biroq keyinchalik uni proletar diktaturasiga zid deb hisoblagan, bu esa mazkur tushunchaning sovet sharoitida rivojlanishini cheklab qo‘ygan.

«Fuqarolik jamiyati bilan o‘zaro hamkorlik jarayonida NNTlarning roli» nomli bobning ikkinchi paragrafida muallif nodavlat notijorat tashkilotlarining rolini tahlil qilar ekan, ularning demokratik qadriyatlarni qo‘llab-quvvatlovchi, fuqarolar huquqlarini himoya qiluvchi va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirishga ko‘maklashuvchi fuqarolik jamiyatining asosiy institutlari sifatidagi ahamiyatiga alohida e’tibor qaratadi. Tadqiqotda O‘zbekistonda NNT faoliyatining me’yoriy-huquqiy jihatlari, shuningdek, islohotlar va modernizatsiya sharoitida ularning ijtimoiy va siyosiy roli o‘z aksini topgan[25].

O‘zbekistonda NNTlar faoliyati 200 dan ortiq hujjatni, xususan, «NNT faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida»gi va «Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida»gi qonunlarni o‘z ichiga olgan me’yoriy-huquqiy baza bilan tartibga solinadi, bu esa ularning samarali ishlashi va hokimiyat organlari bilan o‘zaro hamkorligi uchun huquqiy shart-sharoitlar yaratadi[26]. «Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida»gi qonun davlat va nodavlat tuzilmalarining hamkorligini rasmiylashtiradi, bu esa davlat boshqaruvining shaffofligi va hisobdorligini ta’minlashga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 26 avgustdagi «Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-124-son Farmoni shaffof raqobat mexanizmlarini rivojlantirish, ijtimoiy ahamiyatga molik dasturlar samaradorligini kuchaytirish, shuningdek, fuqarolik sektorining barqaror faoliyat yuritishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan institutsional islohotlarning mantiqiy davomi bo‘ldi.

---

[23] Giddens, A. *The Third Way: The Renewal of Social Democracy*. Cambridge: Polity Press, 1998; Dahrendorf, R. *Reflections on the Revolution in Europe*. London: Chatto & Windus, 1990.

[24] Foucault, M. *Discipline and Punish: The Birth of the Prison*. New York: Vintage Books, 1995; Toffler, A. *The Third Wave*. New York: Bantam Books, 1980


[25] Ўзбекистон Республикасининг "Нодавлат нотижорат ташкилотлари фаолиятининг кафолатлари тўғрисида"ги Қонуни, 03.01.2007 й. ЎРҚ-76-сон// https://lex.uz/docs/1101280

[26] Ўзбекистон Республикасининг "Ижтимоий шериклик тўғрисида"ги Қонуни, 25.09.2014 й. ЎРҚ-376-сон// https://lex.uz/docs/2468216

Muallif statistik ma’lumotlarni keltiradi, 1991 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra, O‘zbekistonda jami 95 ta nodavlat notijorat tashkiloti faoliyat yuritgan. 2000 yilga kelib ularning soni 2585 taga yetdi, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024 yil oxiriga kelib 10 000 dan ortiq NNT ro‘yxatdan o‘tgan. Ushbu tashkilotlar ekologiya, ta’lim va sog‘liqni saqlashdan tortib, huquqni himoya qilish, tadbirkorlik, qishloq xo‘jaligi, fan, texnologiya, yoshlar, ayollar va nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash kabi turli sohalarda faol ish olib bormoqda.

1-diagramma

Yillar kesimida NNTlar soni



NNTlarning ijtimoiy roli ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat sohalarini qo‘llab-quvvatlash, inson huquqlarini himoya qilish hamda fuqarolarni ijtimoiy-siyosiy hayotga jalb etishni o‘z ichiga oladi. Masalan, «Ijtimoiy fikr» Respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish Markazi ma’lumotlariga ko‘ra, 2014 yildayoq xotin-qizlarning 91,3 foizi ijtimoiy hayotdagi faolligini ijobiy baholagan. 2025 yilga kelib xotin-qizlar siyosat, biznes va ijtimoiy sohalarda tobora faol ishtirok etmoqda, bu o‘sish davlat siyosati, jumladan, NNTlar amalga oshirayotgan ta’lim dasturlarini ro‘yobga chiqarish fonida kuzatilmoqda.[27]

NNTlar, shuningdek, «Yangi O‘zbekiston» konsepsiyasi va «O‘zbekiston – 2030» taraqqiyot strategiyasi doirasida O‘zbekistonda demokratik institutlarni modernizatsiya qilish va mustahkamlashga hissa qo‘shish orqali ijtimoiy va siyosiy islohotlarni amalga oshirishning muhim kanali bo‘lib xizmat qilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoev mamlakatning demokratik o‘zgarishlarida NNTlarining strategik ahamiyatga ega ekanligini alohida ta’kidladi.

Hindiston, Xitoy va AQSh kabi boshqa mamlakatlar tajribasi NNT faoliyatining shakllari va yo‘nalishlari xilma-xilligini, ularning inson huquqlarini ta’minlash, ijtimoiy adolatni rivojlantirish va fuqarolik jamiyatini mustahkamlashdagi rolini ko‘rsatadi[28]. Hindistonda NPOlar an’anaviy ravishda ijtimoiy himoyaga muhtoj

[27] Восприятие женщинами своего социального и экономического положения, их надежды и перспективы // https://ijtimoiyfikr.uz/ru/issledovaniya/obschestvo/25594926090.htm


[28]Samrin Sagir, «NGOs in India: Roles and Challenges», 2020.

guruhlarni qo‘llab-quvvatlaydi va ayollar huquqlarini kengaytirishga ko‘maklashadi[29]. Xitoyda NPOlarning rivojlanishi siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlarni aks ettiruvchi bir necha bosqichlarni bosib o‘tdi. AQShda fuqarolik jamiyati demokratik nazoratni ta’minlash va ijtimoiy muammolarni hal etishga ko‘maklashadigan millionlab tashkilotlardan iborat[30].

«NNTning ijtimoiy institut sifatidagi tuzilmasi va mazmuni hamda ularning o‘zaro ta’sir mexanizmlari» deb nomlangan uchinchi paragrafda NNT, NKO, NPO kabi zamonaviy atamalarning xilma-xilligi notijorat tashkilotlarni tushunish va faoliyat yuritishining ham xalqaro, ham mintaqaviy xususiyatlarini aks ettirishi yoritib berilgan. O‘zbekistonda «nodavlat notijorat tashkilotlar» (NNT) atamasi qo‘llanilib, bu atama ushbu tashkilotlarning davlatdan mustaqil ekanligini ta’kidlaydi. Ingliz tilidagi an’analarda ko‘pincha NGO (Non-Governmental Organization) atamasi ishlatilsa, rus tilida so‘zlashadigan hududlarda esa NKO yoki NPO atamasi qo‘llaniladi, bu tashkilotning yuridik maqomi yoki faoliyatining ijtimoiy ahamiyatini ta’kidlashga xizmat qiladi.

Muallif NNT fuqarolik jamiyatining asosiy elementi ekanligini ta’kidlaydi, ular fuqarolar va davlat o‘rtasidagi o‘zini o‘zi tashkil etish va o‘zaro hamkorlikning asosini shakllantiradi. Mamlakatimiz sotsiologiyasi nuqtai nazaridan, NNTlar, qiziqishlar bo‘yicha uyushmalar, ko‘ngillilar tashabbuslari va inson huquqlarini himoya qilish harakatlarini o‘z ichiga olgan uchinchi sektorning rivojlanishi jamiyatni demokratlashtirish jarayonining muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi.

O‘zbekistonda uchinchi sektor davlatdan mustaqil ravishda faoliyat ko‘rsatuvchi va ijtimoiy farovonlikka erishishga yo‘naltirilgan tashabbuslar yig‘indisi sifatida rivojlanmoqda. Muallifning ta’kidlashicha, nodavlat notijorat tashkilotlari jamiyat va davlat o‘rtasida vositachi sifatida muhim rol o‘ynaydi, ayniqsa, jamoatchilik nazoratini amalga oshirish sohasida hamkor sifatida ishtirok etishi mumkin. Sektor ichida shartli ravishda guruhlarni ajratish mumkin (1-rasm)



1-rasm. O‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlari tipologiyasi

[29] Jia, «Development of NGOs in China: Historical Phases», 2018.
[30] Salamon, L. M., «The State of Nonprofit America», 2012.

NNTlarning rivojlanishi bir necha bosqichlarni bosib o‘tadi: tashabbuskor guruhning o‘z-o‘zini tashkil etishi, tashqi muhitga chiqish va ijtimoiy faoliyatni boshlashdan tortib, professionallashuv, boshqa NNTlarni muvofiqlashtirish ayrim hollarda, siyosiy ta’sir ko‘rsatishgacha. Davlat tuzilmalari bilan o‘zaro aloqalar institutlashtirish, strategik rejalashtirish va hamkorlik modellarini ishlab chiqishni talab qiladi. Bu, ayniqsa, O‘zbekistonning hokimiyatning ochiqligi va hisobdorligi yo‘nalishi sharoitida dolzarbdir[31].

Dissertatsiya tadqiqotining **«O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari o‘zaro hamkorligining asosiy tendensiyalari tahlili»** nomli ikkinchi bobida O‘zbekistonda olib borilayotgan ijtimoiy va siyosiy islohotlar sharoitida fuqarolik jamiyati institutlarining o‘zaro ta’sirini ifodalovchi asosiy tendensiyalar tizimli ravishda tahlil qilingan. Diqqat markazida ijtimoiy ahamiyatga ega masalalarni hal qilishga qaratilgan o‘zaro hamkorlik shakllari va mexanizmlari, shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlarining islohotlar barqarorligini ta’minlashdagi roli o‘rin olgan.


Ikkinchi bobning «Yangi O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari o‘zaro hamkorligining asosiy tendensiyalari» deb nomlangan birinchi paragrafida fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishga qaratilgan huquqiy va institutsional chora-tadbirlar ko‘rib chiqilgan. O‘zbekistonda demokratik yangilanish va modernizatsiya sharoitida nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari erkin rivojlanishi uchun tashkiliy-huquqiy va institutsional shart-sharoitlar yaratildi. Ushbu institutlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bir qator muhim me’yoriy-huquqiy hujjatlar, jumladan, jamoat birlashmalari, xayriya, siyosiy partiyalar va ommaviy axborot vositalari to‘g‘risidagi qonunlar qabul qilindi[32].

Dissertatsiya tadqiqotida O‘zbekiston Respublikasi aholisining fuqarolik jamiyati institutlariga, xususan, nodavlat notijorat tashkilotlari, siyosiy partiyalar va ommaviy axborot vositalariga bo‘lgan munosabati sotsiologik jihatdan o‘rganilgan. Tadqiqot davomida fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi ko‘p jihatdan ijtimoiy institutlarning faolligi va fuqarolarning ijtimoiy o‘zaro ta’sir sub’ektlari sifatidagi rolini anglashiga bog‘liqligi aniqlandi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, respondentlarning 54%i NNTlarga ishonch bildiradi (2-diagramma), aholining katta qismi bolalar va yoshlar jamoat tashkilotlari faoliyatidan xabardor, bu esa ushbu sohaning fuqarolik faolligini shakllantirishdagi ahamiyatini namoyon etadi. Eng mashhur NNTlar qatorida Yoshlar ittifoqi, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ayollar nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa tashkilotlar aytib o‘tilgan.

[31] Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Фуқаролик жамияти институтларини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» Фармони, 26.08.2024 й. ПФ-124-сон//https://www.lex.uz/docs/7083846

[32] Общественный фонд поддержки негосударственных некоммерческих организаций и иных институтов гражданского общества при Олий Мажлисе Республики Узбекистан. Официальный сайт. URL: https://ngo.gov.uz/ru/about-us/suppreme-assembly

2-diagramma. Fuqarolarning NNT faoliyatiga ishonchi (foizda)



Turli yillarda o‘tkazilgan so‘rovlar ma’lumotlari O‘zbekiston aholisining fuqarolik va elektoral faolligi yuqori ekanini ko‘rsatmoqda. Xususan, 2019 yilda o‘tkazilgan sotsiologik so‘rov natijalariga ko‘ra, respondentlarning 84%i saylovda ishtirok etgan, bu esa fuqarolarning o‘z ijtimoiy va siyosiy mas’uliyatini yuqori darajada anglashidan dalolat beradi. 2024 yilgi so‘rovnoma natijalari fuqarolarning joriy siyosiy jarayonlarga bo‘lgan qiziqishi saqlanib qolayotganini, hatto, kuchayib borayotganini tasdiqlaydi. Elektoral faollikning o‘sishi kuzatilmoqda: o‘zbekistonliklar davlat organlarining harakatlarini tobora diqqat bilan kuzatib bormoqda va saylovlarda ishtirok etishga tayyorligini namoyish etmoqda. Monitoring natijalariga ko‘ra, ovoz berish sanasi yaqinlashgani sayin aholining o‘z saylov huquqidan foydalanishga bo‘lgan intilishi ortib boradi – avgust oyida so‘rovda qatnashganlarning 77,9%i saylovda ishtirok etish niyatini bildirgan bo‘lsa, oktyabr oyida bu ko‘rsatkich 82,6%ga oshgan[33]. Bu ko‘rsatkichlar aholining siyosiy madaniyati va mamlakatni demokratik rivojlantirish jarayonlariga jalb etilganlik darajasi ortib borayotganligidan dalolat beradi.

Mahalliy muammolarni hal qilishda NNT samaradorligiga shubhalar mavjudligiga qaramay, fuqarolik faolligi va aholining ijtimoiy institutlarga ishonchi o‘sishining ijobiy dinamikasi qayd etilmoqda. Shu bilan birga, muallif o‘tkazgan so‘rov ma’lumotlariga ko‘ra, respondentlarning 97%i fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining kamida bir shaklida ishtirok etgan, bu esa mamlakatda fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish imkoniyati mavjudligidan dalolat beradi.

So‘rov natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda fuqarolik ishtiroki an’anaviy shakllarni (hasharlar, obodonlashtirish, xayriya, mahalla faoliyati) zamonaviy shakllar bilan uyg‘unlashtiradi: ko‘ngillilik (13%), OAV va tashkilotlarga murojaat qilish (10%), ijtimoiy tarmoqlardagi ijtimoiy ahamiyatga molik manfaatlar bo‘yicha guruhlarda ishtirok etish (9%). An’anaviy va zamonaviy shakllarning fuqarolar, mahalla, NNT va davlat darajasida bir vaqtda amal qiladigan ushbu uyg‘unligi dissertatsiyada asoslangan fuqarolik jamiyatida NNTlarning ko‘p


[33] Выборы в Олий Мажлис и новые правила электорального цикла [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://ijtimoiyfikr.uz/ru/issledovaniya/politika-i-pravo/255992004.htm

o‘lchovli o‘zaro aloqa tizimining moslashuvchan modeli uchun empirik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ikkinchi bobning «Jamiyatning ijtimoiy muammolarini hal qilishda NNT faoliyatining evolyusiyasi» deb nomlangan ikkinchi paragrafida O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatiga aholining munosabati ko‘rib chiqilgan. O‘zbekistonning turli hududlari aholisining fuqarolik jamiyati haqidagi fikrlarini aniqlashga imkon beradigan empirik ma’lumotlarni olish maqsadida dissertant tomonidan aholining O‘zbekiston fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatiga munosabatini aniqlash bo‘yicha tadqiqot o‘tkazilgan.

So‘rovnoma 2019–2020 yillarda O‘zbekiston Respublikasining butun hududida, shu jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, barcha viloyatlar va Toshkent shahrida o‘tkazilgan. Tadqiqotda jami 1 200 nafar respondent ishtirok etdi, ulardan 59%ni erkaklar, 41%ni ayollar tashkil etdi, shahar va qishloq joylari o‘rtasidagi muvozanat ta’minlangan[34]. Ma’lumot yig‘ish usuli – shaxsiy rasmiy intervyu. Olingan ma’lumotlarning tahlili shuni ko‘rsatdiki, «fuqarolik jamiyati» tushunchasi leksika va ijtimoiy ongga chuqur kirib borgan. Bu atama ularga nimani anglatadi, degan savolga respondentlarning 40%i bu – fuqarolar huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi mustaqil institutlar yig‘indisi, deb javob bergan. 23%i uni huquqlar amalga oshiriladigan va qonun ustuvorligi amal qiladigan makon bilan bog‘laydi. Shu bilan birga, ayrim, ammo o‘ziga xos ta’riflar ham qayd etilgan: «davlat ishtirokisiz tuzilgan tashkilotlar»; «ijtimoiy muammolarni hal qiluvchi tashkilotlar»; «hokimiyatdan moliyaviy jihatdan mustaqil tuzilmalar»; «mustaqil, notijorat birlashmalar»; «o‘zini o‘zi boshqarish organlari» va boshqalar.

3-diagramma. Respondentlar orasida «fuqarolik jamiyati» tushunchasining idrok etilishi



Respondentlar tomonidan axborot manbalarining baholanishi haqidagi ma’lumotlar qiziqish uyg‘otadi. So‘rov natijalariga ko‘ra, respondentlar o‘z qarashlariga eng katta ta’sirni messenjerlar va ijtimoiy tarmoqlar (baholaganlarning 76%i besh ballik shkala bo‘yicha 4–5 ball qo‘ygan), milliy telekanallar (72%) va milliy internet-saytlar (69%) ko‘rsatadi, deb hisoblaydi; markaziy gazetalarga shunday baho 57%, milliy radioga esa 48% bergan. Shu bilan birga, respondentlarning fikricha, so‘nggi besh yilda eng sezilarli darajada televidenie

[34] Тадқиқот иштирокчилар ҳақида қўшимча маълумотлар. Респондентларнинг ёш таркиби: 18-20 ёш - 6%; 21-30 ёш - 23%; 31-40 ёшлилар - 29%; 41 ёшдан 50 ёшгача - 21%; 51 ёшдан 60 ёшгача - 15%; ва 61 ёшдан катталар - 6%
Сўров иштирокчилари орасида миллий тақсимот бўйича энг кўп қисмини ўзбеклар ташкил этганлиги аниқланди. Шунингдек, тожиклар, қорақалпоқлар, руслар, татарлар ва бошқа миллат вакиллари ҳам иштирок этишган.
Респондентларнинг маълумоти: олий - 63%; ўрта махсус - 27%; ўрта - 8% (2% жавоб йўқ).
Тадқиқотда турли мутахассисликлар ва фаолият соҳалари вакиллари, жумладан, ўқитувчилар, тиббиёт ходимлари, иқтисодчилар, ҳуқуқшунослар, тадбиркорлар, хизмат кўрсатиш соҳаси ходимлари ва бошқалар иштирок этган.

(89% yaxshilanishni qayd etgan, shu jumladan, 40% – «sezilarli darajada») va internet (83% va 38%), kamroq darajada – radio (63%) va gazetalar (61%) yaxshilangan.

An’anaviy va raqamli kanallar o‘zaro to‘ldiruvchi sifatida qabul qilinadi, bu milliy media iste’mol bo‘yicha tadqiqot ma’lumotlariga mos keladi («Massmedia» jamg‘armasi, Yevropa Ittifoqining O‘zbekistondagi delegatsiyasi ko‘magida; dala bosqichi – «Ijtimoiy fikr» Respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish Markazi, 2026 yil 8–19 sentyabr, 1 411 nafar respondent): yangiliklarning asosiy manbalari sifatida Telegram-kanallar (51,6%), televidenie (44,6%) va ijtimoiy tarmoqlar (41,6%) ko‘rsatilgan, radio (7,2%) va bosma nashrlardan (5,2%) esa sezilarli darajada kamroq foydalaniladi. Shu bilan birga, yoshga oid farq yaqqol seziladi: 18–24 yoshli yoshlar ko‘pincha Telegramdan (66,2%), 55 yoshdan oshgan respondentlar esa televideniedan (77,4%) axborot oladi.[35]


Ayni paytda, umummilliy raqamlashtirish tobora kuchayib bormoqda. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakatda internetdan foydalanuvchilar soni 2017 yildagi 14,7 milliondan ko‘payib, 2025 yilda 32,7 millionga yetgan. Eng ommalashgan platformalar: «Telegram» – 28 mln. foydalanuvchi, «Odnoklassniki» – 19,2 mln., Facebook – 2,3 mln., «VKontakte» – 1,5 mln., LinkedIn – 850 ming, X (Twitter) – 250 ming. Bu ma’lumotlar, ayniqsa, yoshlar auditoriyasi kontekstida juda muhim. Xususan, O‘zbekiston yoshlarining huquqiy madaniyatini yuksaltirish mexanizmlariga bag‘ishlangan 2023 yilgi sotsiologik tadqiqot natijalariga ko‘ra quyidagicha savol qo‘yilgan: *«Yoshlar o‘rtasida huquqiy targ‘ibotni qanday vositalar yoki shakllarda olib borish kerak?»*. So‘ralganlardan 51,3%i internet-saytlari va ijtimoiy tarmoqlarni, 23,4%i televidenieni, 14,5%i bosma nashrlarni, 10,8%i sayyor qabullarni tanlagan[36].

Umummilliy va yoshlar orasidagi sotsiologik tadqiqotlarni taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, fuqarolik jamiyati faoliyatiga jalb etilish darajasi yoshga, mintaqa va raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlariga bog‘liq ekan. Bu, ayniqsa, shahar va qishloq o‘rtasidagi raqamli tafovutni inobatga olgan holda, NNTlardan yanada moslashuvchan muloqot yuritishni talab etadi. So‘rov natijalariga ko‘ra, respondentlarning 40%i ijtimoiy faollikni oshirishni, 31%i ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo‘llab-quvvatlashni, 29%i siyosiy faollikni oshirishni NNTning ustuvor vazifasi deb hisoblaydi (4-diagramma). Shuningdek, bo‘sh vaqtni mazmunli tashkil etish, huquqlarni himoya qilish, tadbirkorlikni rivojlantirish va ekologiya masalalari ham aytib o‘tilgan. Umuman olganda, aholi NNTni davlat sa’y-harakatlarini to‘ldiruvchi muhim ijtimoiy resurs sifatida qabul qiladi.

[35] O‘zbekistonda media iste’moli bo‘yicha milliy tadqiqot: tahliliy hisobot / Massmedia fondi. – Toshkent, 2026. – 2026 yil 8–19 sentyabr, 1 411 respondent. – URL: https://massmedia.uz/assets/uploaded/NMRC_RU.pdf (kirish sanasi: 15.11.2026).

[36] Юлдашев Ш.И. Механизмы повышения правовой культуры узбекской молодежи: автореф. дис. … канд. социол. наук. - Ташкент, 2025.

4-diagramma. Aholi tasavvurida NNT faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari



So‘rovda qatnashganlarning eng katta qismi (28%) fikriga ko‘ra, jamoat tashkilotlari faoliyatini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri aholi bilan yanada yaqinroq hamkorlik o‘rnatish bo‘lishi kerak, bu hamkorlik fuqarolarning haqiqiy ehtiyojlarini aniqlash va hal etishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Respondentlarning to‘rtdan bir qismi jamoatchilik ishonchini va NNT faoliyati to‘g‘risida xabardorlikni oshirishga qaratilgan axborot-tushuntirish ishlarini kuchaytirish zarurligini ta’kidlagan. Shu bilan birga, tadqiqot ishtirokchilarining 22%i tashkilotlar faoliyatini samaradorligini, rasmiy yondashuvdan voz kechish va real harakatlar bilan qo‘llab-quvvatlanmagan hisobotlarga urg‘u berishdan tiyilish orqali oshirish muhimligini ta’kidlashgan.

Bundan tashqari, respondentlarning 17%i jamoat tashkilotlarining mahalliy hokimiyat organlaridan mustaqilligini oshirish zarurligi haqida fikr bildirgan, bu esa institutsional mustaqillik va haqiqiy jamoatchilik nazoratiga bo‘lgan dolzarb talabni aks ettiradi.

Dissertatsiya tadqiqoti doirasida aholining fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari, jumladan, siyosiy partiyalar, mahalla organlari va saylov tizimiga munosabatini o‘rganishning umumlashtirilgan natijalari ham keltirilgan. Jumladan, 2024 yilgi so‘rov natijalariga ko‘ra, jamoatchilik ongida siyosiy partiyalar saylovoldi dasturlarining mazmuni va ustuvor yo‘nalishlari haqida aniq tasavvur shakllangan. Ularning negizida, fuqarolarning fikriga ko‘ra, ta’lim sifati va undan foydalanish imkoniyati (56,6%), aholini ijtimoiy himoya qilish va qo‘llab-quvvatlash (42,2%), iqtisodiy rivojlanish, shu jumladan, soliq siyosatini takomillashtirish, kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, aholi daromadlarini oshirish va «yashil» texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari (30,7%) masalalari yotishi kerak. Shuningdek, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish (23,4%), fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash (19,3%), energetika

muammolarini hal etish (18,3%) va infratuzilmani yaxshilash (18,0%) mavzulari ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan[37].

Bobning uchinchi paragrafi «NNTlarining demokratlashtirish va modernizatsiyalash jarayonlariga ta’siri» deb nomlanib, unda zamonaviy O‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) jamiyatni demokratlashtirish va modernizatsiyalash jarayonlarida tobora muhim ahamiyat kasb etayotgani bayon etilgan. Ularning faoliyati jamoatchilik tashabbuslarini amalga oshirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ilgari surish, shuningdek, davlat tuzilmalarining hisobdorligi va shaffofligini kuchaytirishga qaratilgan. O‘tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijalariga ko‘ra, fuqarolar islohotlarning ustuvor yo‘nalishlari sifatida qonun ustuvorligini mustahkamlash (46%), davlat boshqaruvini takomillashtirish (37%) va iqtisodiyotni erkinlashtirish (36%)ni eng muhim deb hisoblaydilar. Aholining fikricha, bu sohalar nafaqat islohotlarni talab qiladi, balki fuqarolik institutlarining, jumladan, NNTlarning faol qo‘llab-quvvatlashiga ham muhtoj, aynan ular resurslarni safarbar etib, jamoatchilik nazorati mexanizmlari orqali jamiyat ehtiyojlarini ifoda eta oladi.

NNTlar, shuningdek, ijtimoiy adolat tamoyillarini ilgari surishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, respondentlarning yarmidan ko‘pi (52%) o‘zlari yashaydigan joylarda adolat tamoyiliga faqat qisman rioya qilinadi, deb hisoblaydi, ayniqsa, muammo Toshkent shahrida yaqqol seziladi. Shu bilan birga, so‘ralganlarning 50,7%i jamoat tashkilotlarining adolatni ta’minlashga qo‘shgan hissasini qisman deb baholaydi, bu esa ularning faoliyatini mahalliy darajada faollashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Buning uchun respondentlar aniq chora-tadbirlarni taklif qildilar: NNTlarning raqamli ochiqligini rivojlantirish, internet platformalari orqali qonun ijodkorligiga jalb qilish, televidenieda ommaviy hisobotlar o‘tkazish, aholi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotlar tashkil etish va korrupsiyaga qarshi faollikni kuchaytirish.

Fuqaro sifatida o‘zligini anglash va demokratik institutlarning ahamiyatini tushunishning yuqori darajasi «Ijtimoiy fikr» markazining tadqiqot natijalari orqali ham o‘z tasdig‘ini topmoqda. Markaz ma’lumotlariga ko‘ra, aholining mutlaq ko‘pchiligi (89,9%) O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini mustaqillik ramzi, huquq va erkinliklar kafolati sifatida qabul qiladi, respondentlarning 87,7%i esa uni mamlakatning demokratik institutlari va qonunchilik tizimi faoliyatining asosi deb biladi[38]. Ushbu ko‘rsatkichlar boshqaruvda ishtirok etish va demokratik o‘zgarishlarni qo‘llab-quvvatlashga bo‘lgan sezilarli ijtimoiy ehtiyoj mavjudligidan dalolat beradi, bunda NNTlar muhim vositachilik vazifasini bajaradi.

Dissertatsiyaning **«O‘zbekistonda jamoatchilik nazorati NNT faoliyatining sohasi sifatida»** deb nomlangan uchinchi bobida jamoatchilik nazorati mexanizmlarida NNT ishtirokining nazariy va amaliy jihatlari ochib berilgan.

[37] Выборы в Олий Мажлис и новые правила электорального цикла // https://ijtimoiyfikr.uz/ru/issledovaniya/politika-i-pravo/255992004.htm

[38] Центр изучения общественного мнения «Ижтимоий фикр». День Конституции Республики Узбекистан – 2024. https://ijtimoiyfikr.uz/ru/issledovaniya/politika-i-pravo/257446654.htm


Ularning ushbu sohada shakllanish bosqichlari, islohotlar sharoitida faoliyatni optimallashtirish yo‘llari, shuningdek, NNTning davlat tuzilmalari va jamiyat bilan o‘zaro hamkorligini rivojlantirish istiqbollari tahlil qilingan.

Uchinchi bobning «Nodavlat notijorat tashkilotlarining jamoatchilik nazorati mexanizmi sifatida shakllanishi» deb nomlangan birinchi paragrafida davlat boshqaruvini modernizatsiyalash va ijtimoiy-siyosiy hayotni demokratlashtirish sharoitida O‘zbekistonda NNTlar jamoatchilik nazoratining muhim vositasiga aylanib borayotgani ta’kidlangan. NNTlarning jamoatchilik nazorati institutlari sifatida shakllanishi nafaqat me’yoriy-huquqiy bazaning mavjudligini, balki aholining davlat va jamiyat jarayonlarini boshqarishdagi o‘z rolini anglaydigan rivojlangan ijtimoiy muhitni ham taqozo etadi.

Bugungi kunda NNTlar davlat organlari faoliyatini monitoring qilish va baholashda fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirokini mustahkamlovchi «Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida»gi Qonunni o‘z ichiga olgan kengaytirilgan me’yoriy-huquqiy baza doirasida faoliyat yuritmoqda. Ushbu mexanizmlar rasmiy ishtirokdan qarorlar qabul qilishga haqiqiy ta’sir o‘tkazishga o‘tishni ta’minlaydi, shu bilan birga hokimiyatning hisobdorligini kuchaytiradi.

Davlat va jamiyat o‘rtasidagi muloqot mustahkamlanayotgan sharoitda jamoatchilik nazorati hamda fuqarolik o‘zini o‘zi anglashni, ularning shakllanishi va rivojlanishini o‘rganish dolzarb bo‘lib bormoqda. Empirik tahlil maqsadida FJShMQMI tomonidan 2012-yilda O‘zbekistonning barcha hududlarida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari (mahalla qo‘mitalari) vakillari o‘rtasida o‘tkazilgan 140 nafar respondent ishtirokidagi (har bir hududdan 10 nafardan) sotsiologik tadqiqot ma’lumotlaridan foydalanildi. Ushbu ma’lumotlar dinamikani tahlil qilish uchun boshlang‘ich nuqta bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, respondentlarning 50,7%i jamoatchilik nazoratini fuqarolik jamiyati institutlarining davlat organlari ustidan nazorat qilish faoliyati sifatida belgilaydi, 57,9%i esa uning asosiy subyektlari sifatida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini hisoblaydi; 47,1%i nazorat mexanizmlarida shaxsan ishtirok etgan, yana 22,9%i ularning guvohi bo‘lgan. Respondentlar fikricha, jamoatchilik nazoratini ta’minlashda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik tashabbuslarini davlat bilan konstruktiv muloqotga aylantira oladigan boshqa birlashmalar alohida o‘rin tutadi.

5-diagramma. Jamoatchilik nazorati va uning asosiy ishtirokchilari haqida tushuncha



Bu baho zamonaviy ma’lumotlarga mos keladi. 2025-yil 2–11-aprel kunlari «Ijtimoiy fikr» Respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi mamlakatning

barcha hududlarida aholi o‘rtasida so‘rov o‘tkazdi (18 yosh va undan katta 1425 nafar respondent: 49,8%i erkak va 50,2%i ayol). Korrupsiya sabablari sifatida respondentlar muammolarni qonunni chetlab o‘tib hal qilishga intilishni (45%), huquqiy savodxonlikning pastligini (34%), boshqaruv organlari faoliyatida ochiqlik yetarli emasligini (30%), fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan mansabdor shaxslar faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratining zaifligini (25%) hamda korrupsiyaga qarshi kurashish qonunchiligining nomukammalligini (18%) ko‘rsatgan[39]. Shunday qilib, fuqarolik jamiyati institutlarining, avvalo, nodavlat notijorat tashkilotlarining jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi roli muhimligicha qolmoqda, nazoratning zaifligi esa aholi tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashishga to‘sqinlik qiluvchi omil sifatida qabul qilinadi. Bu nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolar va davlat o‘rtasidagi hamkorlik samaradorligini jamoatchilik nazorati doirasida oshirish yo‘llarini izlash zarurligini tasdiqlaydi.

Ushbu ma’lumotlarni qiyoslash NNTlarning e’tirof etilgan roli bilan ularning amaldagi ta’siri o‘rtasida tafovut mavjudligini ko‘rsatadi: respondentlarning 28%i jamoat tashkilotlarining aholi bilan yanada yaqinroq hamkorlik qilishini zarur deb hisoblaydi, jamoatchilik nazoratining zaifligi esa korrupsiya sabablari qatorida qayd etilgan. Bu NNT rolini nazorat tartibotlarining rasmiy ishtirokchisidan davlat qarorlarini tayyorlash, monitoring qilish va tuzatish jarayonining, shu jumladan, mahalliy darajada to‘laqonli ishtirokchisiga aylantirish zaruratini asoslaydi.

Uchinchi bobning «O‘zbekistonda islohotlar jarayonida jamoatchilik nazoratida NNT faoliyatini optimallashtirish» deb nomlangan ikkinchi paragrafida muallif NNTlarning davlat va jamiyat o‘rtasidagi vositachilik roli muhimligini ta’kidlaydi, ular fuqarolarni qarorlar qabul qilish va qaror ijrosini nazorat qilishga jalb etishga ko‘maklashadi.

Jamoatchilik fikrining qarorlar qabul qilishga ta’sir ko‘rsatgan holatlari, xususan, daraxtlarni kesishga moratoriy e’lon qilinishi uning ta’siriga yaqqol misollar hisoblanadi. OAV, internet va ijtimoiy tarmoqlarning mustaqil monitoring va jamoatchilik fikrini shakllantirish vositasi sifatidagi roli ortib bormoqda. O‘zbekiston Prezidenti ta’biri bilan aytganda, «Jamoatchilik nazorati va ommaviy axborot vositalarining maqsadi bitta – xalq hayotini yaxshilash»[40].


Zamonaviy sharoitlar NNTdan tahlil, monitoring, raqamli texnologiyalar va xalqaro hamkorlik bo‘yicha kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishni talab qilmoqda. Fuqarolarni jalb qilish va institutsional qo‘llab-quvvatlash demokratlashtirishning asosiy omiliga aylanmoqda. Raqamli platformalar aholi va hokimiyat o‘rtasidagi aloqani kuchaytiradi, ijtimoiy muammolarni hal qilishga ko‘maklashadi. 2025 yilning I choragida 24 mingdan ortiq xotin-qizlar himoya orderlarini oldi, ularning 202 nafari ixtisoslashtirilgan markazlarda reabilitatsiyadan o‘tdi. «Inson» markazlari tomonidan 3,5 mingta ayolga huquqiy va psixologik yordam ko‘rsatildi, 19,3 mingta

[39] O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi. «Fuqarolar O‘zbekistonda korrupsiya to‘g‘risida» mavzusidagi jamoatchilik fikri so‘rovi natijalari / «Ijtimoiy fikr»Respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi. – Toshkent, 2025. – 2025-yil 2–11-aprel, 1 425 nafar respondent. – URL: https://aca.uz/ru/article/fuqarolar-zbekistonda-korrupciia-tgrisida-mavzusidagi-zamoatcilik-fikri-srovi-natizalari

[40] Верховенство Конституции и законов – важнейший критерий правового демократического государства и гражданского общества// https://president.uz/ru/lists/view/3119

jabrlanuvchining ahvoli o‘rganilib, zarur xizmatlar ko‘rsatildi[41]. 2025 yil 1 may holatiga ko‘ra, «Xalq nazorati» platformasi orqali Toshkent shahri aholisi tomonidan 25872 ta murojaat yuborilgan bo‘lib, ularning aksariyati uy-joy, kommunal xo‘jaligidagi – suv, elektr energiyasi, chiqindi, quvurlar va hovlilar muammolari bilan bog‘liq. Davlat dasturiga muvofiq (2018 yil 22 yanvardagi PF-5308-son Farmonning 34-bandi), fuqarolarning boshqaruvdagi ishtirokini kengaytirish va shaffofligini oshirish maqsadida «Mening fikrim» veb-portali ishlab chiqildi. Raqamli[42] platformalar – «Xalq nazorati», «Mening fikrim» va «Inson» markazlari jamoatchilik nazoratining asosiy kanallariga aylandi. Ushbu shakllarni – onlayn murojaatlardan tortib raqamli kraudsorsinggacha tizimlashtirish – «fuqarolar – NNT – davlat» hamkorligining yangi darajasini aks ettiradi, bu esa tadqiqotning ilmiy yangiligi qoidalaridan birini tashkil etadi.

Uch bob natijalarini umumlashtirish O‘zbekiston jamoatchilik nazorati tizimida NNTlarning o‘zaro hamkorligining konseptual modelini ishlab chiqish imkonini berdi (2-rasm). U nazorat subyektlarini (fuqarolar, NNT, OAV, jamoatchilik kengashlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari), uning shakllarini (murojaatlar, monitoring, axborot so‘rovlari, jamoatchilik eshituvlari, jamoatchilik ekspertizasi), o‘zaro hamkorlik kanallarini (an’anaviy va raqamli) hamda natijani – qayta aloqa va davlat organlari qarorlarini tuzatishni o‘z ichiga oladi. Model qonunchilikda aks etgan demokratik islohotlar bosqichlari («Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida»gi Qonun, 2021–2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi, PF-124-son Farmon) va davlat boshqaruvini raqamlashtirishni hisobga oladi.



2-rasm. Jamoatchilik nazorati tizimida NNTlarning o‘zaro hamkorligining konseptual modeli

[41] В первом квартале 2025 года более 24 тысяч женщин получили охранные ордера // Yuz.uz. - 2025. // https://yuz.uz/ru/news/v-pervom-kvartale-2025-goda-bolee-24-tsyach-jenin-poluchili-oxranne-ordera

[42] «Mening fikrim» веб-портали // https://meningfikrim.uz/, эркин.

Uchinchi bobning «NNTlar bilan hamkorlikda jamoatchilik nazoratini rivojlantirish istiqbollari» deb nomlangan so‘nggi paragrafida O‘zbekistonda jamoatchilik nazorati hokimiyatning shaffofligi va hisobdorligining muhim vositasiga aylanib borayotgani, bunda ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlarda davlatning hamkori sifatida NNTlar asosiy rol o‘ynashi ta’kidlangan. NNT va davlat organlarining birgalikdagi faoliyati jamiyatning hokimiyatga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga va fuqarolarning ehtiyojlariga tezkor javob berishni yaxshilashga yordam beradi.

O‘zbekistonda fuqarolar, NNTlar, OAV va jamoatchilik kengashlarini qamrab olgan keng qamrovli jamoatchilik nazorati tizimi amal qilmoqda. Bunday tuzilma jamiyat va hokimiyat o‘rtasidagi muloqotni mustahkamlaydi. Internet va raqamli platformalarning rivojlanishi fuqarolar faolligini kengaytiradi, ijtimoiy jarayonlar uchun umumiy mas’uliyatni kuchaytiradi.

Dissertatsiyada «fuqarolar – NNT – davlat» formatidagi raqamli ijtimoiy faollik shakllari tizimlashtirilgan: elektron petitsiyalar («Mening fikrim» portali orqali jamoaviy murojaatlar), onlayn muhokamalar (qonun loyihalarini maxsus internet-maydonchada muhokama qilish), kraudsorsing platformalari (Toshkent shahri aholisi shahar muammolari bo‘yicha murojaat yuboradigan «Xalq nazorati» xizmati) va raqamli jamoatchilik kuzatuvi (ijtimoiy tarmoqlar, Telegram-kanallar va bloglarda hokimiyat organlari faoliyatini monitoring qilish). Ularning rivojlanishi internet foydalanuvchilari soni 2017 yildagi 14,7 mlndan 2025 yilda 32,7 mlnta yetgani bilan bog‘liq.

Jamoatchilik kengashlarini rivojlantirish, jamoatchilik tuzilmalarini integratsiyalash va mustaqil ekspertizani huquqiy tartibga solish asosiy yo‘nalishlar bo‘lib qolmoqda. Nazoratning samaradorligi ishonchli ma’lumotlarga ega bo‘lish imkoniyati va hokimiyat organlarining shaffofligiga bog‘liq. Statistik ma’lumotlar jamoatchilik nazorati mexanizmlari samaradorligining sezilarli ekanidan dalolat bermoqda. Masalan, 2023 yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi va Xalq qabulxonalariga fuqarolardan 1,27 milliondan ortiq murojaatlar kelib tushgan. Shundan 530 mingdan ortig‘i ijobiy hal etilib, 469 mingga yaqin murojaatchiga malakali huquqiy maslahatlar berilgan. Natijada 999 mingdan ziyod fuqarolarning talablari qanoatlantirildi. Murojaatlarning asosiy toifalari ijtimoiy soha (109 ming), iqtisodiyot (185 ming) va sud-huquq tizimi (138 ming) bilan bog‘liq[43]. Ushbu ko‘rsatkichlar jamiyat va davlat o‘rtasidagi qayta aloqaning ko‘lamini aks ettiradi hamda islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish va aholining huquqiy himoyasini oshirish uchun NNT ishtirokini ham o‘z ichiga olgan fuqarolik monitoringi mexanizmlarining salohiyatini namoyish etadi.

Tendensiyalarni aniq tushunish uchun raqamlashtirish darajasi va internetga kirish imkoniyatidagi ijtimoiy tafovutlarni hisobga olish muhim hisoblanadi. D.G. Tashmuxamedovaning (2025) ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston yoshlarining 86,9%i raqamli ko‘nikmalarni egallashga intiladi, ammo 37,8%i (asosan ayollar va qishloq yoshlari) raqamli ko‘nikmalarga ega emas. Ijtimoiy tarmoqlardan

[43] Мухаммадиев У.И. Внедрение и эволюция системы народных приемных в Новом Узбекистане: автореф. дис. … канд. социол. наук. - Ташкент, 2025.

foydalanishda ham tafovut mavjud: 35,5% shahar aholisi va atigi 27,5% qishloq aholisi ulardan faol foydalanadi. Internet tezligining pastligi va ulanish narxining yuqoriligi qishloq yoshlari uchun to‘siq bo‘lib qolmoqda[44].

Ijtimoiy-raqamli tafovutlar aholining ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtirokiga ta’sir qiladi. «Ijtimoiy fikr» markazi (2023) ma’lumotlariga ko‘ra, so‘rovda qatnashganlarning 82,3%i mamlakat hayoti bilan qiziqadi, shu jumladan, 43,5% voqealarni muntazam ravishda, 37,2%i esa vaqti-vaqti bilan kuzatib boradi. Shu bilan birga, respondentlarning 33%i ijtimoiy tarmoqlarni an’anaviy OAV bilan bir qatorda (56,5%) jamoatchilik fikrining asosiy manbai deb hisoblaydi.[45] Bu jamiyatning raqamli transformatsiyasi sharoitida samarali jamoatchilik nazorati tizimini shakllantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadigan raqamli kanallarning jamoatchilik ishtiroki va nazorati vositasi sifatidagi ahamiyati tobora ortib borayotganini ko‘rsatadi.

XULOSA

«O‘zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazorati faoliyati doirasida NNTlarning o‘zaro hamkorligi istiqbollari» mavzusidagi tadqiqot natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. O‘zbekiston fuqarolik jamiyatida NNTlarining o‘zaro hamkorligi ko‘p o‘lchovli tizimining an’anaviy (mahallaning o‘zini o‘zi tashkil etishi, hasharlar, qo‘shnilar birdamligi) va zamonaviy (raqamli platformalar, elektron ishtirok, jamoatchilik ekspertizasi) shakllari sinteziga asoslangan moslashuvchan modeli asoslangan bo‘lib, u ijtimoiy ongning axloqiy-mafkuraviy tamoyillariga tayanadigan o‘zaro ta’sirning barqaror ijtimoiy mexanizmlarini ta’minlash imkonini beradi.

2. Fuqarolik jamiyatining institutsional xususiyatlari, demokratik islohotlar bosqichlari va davlat boshqaruvini raqamlashtirish jarayonlarini hisobga olgan holda O‘zbekiston jamoatchilik nazorati tizimida NNTlarning o‘zaro hamkorligining konseptual modeli ishlab chiqildi. Ushbu model NNTlarning nafaqat kuzatuv va nazoratda qatnashishiga, balki turli bosqichlardagi davlat qarorlari ishlab chiqish va tuzatish jarayonlariga ham jalb etilishiga yo‘naltirilgan.

3. NNTlarning roli nazorat jarayonlarining rasmiy ishtirokchisidan qarorlar qabul qilish, monitoring o‘tkazish, ekspert baholash va tashabbuslarni jamoatchilik muhokamasiga jalb etilgan to‘laqonli aktoriga aylantirilishi zarurligi aniqlandi. Mahalliy darajada tashabbuskor hamkorlik shakllarini, ayniqsa, mahallalar va o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan sheriklikni institutsionallashtirish alohida ahamiyatga ega.

4. «Fuqarolar – NNT – davlat» formatidagi raqamli ijtimoiy faollik shakllari, shu jumladan, elektron petitsiyalar, onlayn muhokamalar, kraudsorsing platformalari va raqamli jamoatchilik kuzatuvi tizimlashtirildi. Ushbu amaliyotlar aholining jamoatchilik nazorati jarayonlarida ishtirok etishining yangi mexanizmlarini aks ettiradi va raqamli qayta aloqa infratuzilmasini shakllantiradi.

---

[44] Ташмухамедова Д.Г. Виртуальные сети Узбекистана в отражении социологических данных // т. 22, вып. 2, апрель 2025 г., сс. 62-67

[45] Центр изучения общественного мнения «Ижтимоий фикр». Социологическое исследование об общественно-политической активности граждан. - Ташкент, 2023.

5. Konstitutsiya va qabul qilingan qonunlarning, xususan, «Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida»gi Qonunning ustuvorligi davlat, jamiyat va shaxs manfaatlari muvozanatini ta’minlovchi tizimni shakllantiruvchi tamoyil ekanligi asoslab berildi. Fuqarolik jamiyati institutlarining davlat ishlarini boshqarishda ishtiroki huquqiy madaniyatni mustahkamlaydi, shaffoflikni oshiradi va jamiyatdagi befarqlik darajasini pasaytiradi.

6. Sotsiologik tahlillar asosida «fuqarolik jamiyati» tushunchasi aholi leksikonidan mustahkam o‘rin egallaganligi aniqlandi: 40% respondentlar uni fuqarolar huquqlarini himoya qiluvchi mustaqil institutlar majmui, 23%i qonunga rioya qilgan holda huquqlarni amalga oshirish makoni sifatida ko‘radi. Bu jamoat ongining transformatsiyasini ko‘rsatadi, fuqarolarning fuqarolik jamiyati mohiyati va mazmunini tushunishi ortib borayotganidan dalolat beradi.

7. O‘zbekistonda jamoatchilik nazorati fuqarolik jamiyatining modernizatsion resursi bo‘lib, davlat organlarining o‘rnini bosmasligi, balki jamoatchilik ekspertizasi, monitoringi va qayta aloqasi orqali ularning funksiyalarini kuchaytirishi asoslab berildi. Shu bilan birga, nazoratning samaradorligi ishonchli ma’lumotlarga ega bo‘lish va aksiologik asoslar – adolat, mas’uliyat va konsensusga rioya qilishga bog‘liqd.

8. Raqamli tengsizlik (yoshi, jinsi, yashash joyi bo‘yicha) ayrim ijtimoiy guruhlarni, ayniqsa, qishloq yoshlarini jamoatchilik ishtirokining onlayn-formatlarga jalb qilishni cheklashi aniqlandi. Bu inklyuziv jamoatchilik nazorati modelini shakllantirish maqsadida, asosan, ayollar va qishloq aholisi o‘rtasida raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish bo‘yicha moslashuvchan siyosatni talab qiladi.

9. Mahalla instituti o‘zini o‘zi boshqarishning muhim sub’ekti bo‘lib qolayotgani ko‘rsatib o‘tildi (48,5% respondentlar uning obodonlashtirish va hashar ishlaridagi rolini ta’kidlagan). Biroq, uning fuqarolik ishtirokidagi rolini oshirish uchun NNT va boshqa jamoat tuzilmalari bilan o‘zini o‘zi tashkil etish va rasmiyatchilikka yo‘l qo‘ymaslik tamoyillari asosida institutsional hamkorlik zarur bo‘ladi.

10. Jamoatchilik nazorati fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga yo‘naltirilgan mustaqil va alohida institut sifatida rivojlanishi kerakligi asoslab berildi. Shu bilan birga, uning samaradorligi ma’muriy javobgarlik bilan emas, balki fuqarolik ishtirokining oshkoralik, qonuniylik va ixtiyoriylikka asoslangan barqaror shakllarini yaratish qobiliyati bilan belgilanadi.

АКАДЕМИЯ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОЛИТИКИ И УПРАВЛЕНИЯ ПРИ ПРЕЗИДЕНТЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО присуждению УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ DSc. 04/2025.27.12.S.01.02.

НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА

ПАК ПОЛИНА ВАДИМОВНА

ПЕРСПЕКТИВЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ННО В РАМКАХ ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО КОНТРОЛЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

22.00.02 – Социальная структура, социальные институты и образ жизни

АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО СОЦИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ

Ташкент – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) по социологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан под номером B2021.2.PhD/S93.

Диссертация была выполнена в Национальном университете Узбекистана.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.dba.uz/uz/tadqiqotchilarga/ilmiy-kengash) и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Ташмухамедова Дилорам Гафурджановна** доктор социологических наук (DSc)
Официальные оппоненты:	**Матибаев Ташпулат Болтабаевич** доктор социологических наук, профессор
	Саифназаров Исмаил Саифназарович доктор философских наук, профессор
Ведущая организация:	**Республиканский Центр Изучения Общественного Мнения «Ижтимоий фикр»**

Защита диссертации состоится «___ « _____ 2026 года в _____ на заседании Научного совета DSc.04/2025.27.12.S.01.02 при Академии государственной политики и управления при Президенте Республики Узбекистан (Адрес: 100066, г. Ташкент, ул. Ислама Каримова, 45. Тел.: (99871) 232-60-80; факс: (99871) 232-60-66; e-mail: info@dba.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Академии государственной политики и управления при Президенте Республики Узбекистан (зарегистрирована под номером № 420). (Адрес: 100066, г. Ташкент, ул. Ислама Каримова, 45. Тел.: (99871) 232-61-25).

Автореферат диссертации разослан «____»_____ 2026 г.
(Протокол реестра рассылки № _____ от «____»_____ 2026 г.).

М.Б. Бекмурадов
Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, доктор социологических наук, профессор

Ш.М. Садыкова
Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, доктор социологических наук, профессор

Т.Б. Матибаев
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор социологических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В современном мире наблюдается устойчивая тенденция к расширению механизмов участия граждан в процессах принятия решений, где особую роль играют институты гражданского общества, включая негосударственные некоммерческие организации (ННО), выступающих посредниками между обществом и государством. Усиление процессов демократизации, открытости и подотчётности власти сопровождается институционализацией общественного контроля как главного элемента управления на основе принципов открытости и взаимодействия[1]. Международный опыт показывает, что именно через инструменты общественного контроля, реализуемые в том числе посредством ННО, возможно формирование доверия к институтам власти, предупреждение коррупции и повышение качества государственных услуг. В странах Восточной Европы, Латинской Америки и Юго-Восточной Азии государственно-общественные платформы и партнёрства с ННО стали неотъемлемой частью национальных стратегий по обеспечению социальной подотчётности.

Во многих ведущих научных центрах мира осуществляется углублённое изучение взаимодействия негосударственных некоммерческих организаций с государственными структурами в контексте развития институтов общественного контроля. Так, в Центре демократии, развития и верховенства права (CDDRL) Стэнфордского университета ведутся исследования механизмов демократического управления, подотчётности и участия граждан[2]. В ведущих журналах по публичному управлению и праву систематически публикуются эмпирические и теоретические работы, в которых анализируются формы участия граждан и институтов гражданского общества в системах общественного контроля, их взаимодействие с органами власти и вклад в управление общественными процессами[3]. Эти исследования формируют важную теоретико-методологическую базу, актуальную для осмысления процессов институционализации общественного контроля в странах с переходной экономикой, включая Республику Узбекистан.

Новый этап строительства «Нового Узбекистана» и утверждённая в 2023 году Стратегия развития «Узбекистан – 2030» обозначили в числе приоритетов развитие гражданского общества, расширение участия ННО в процессах принятия решений, а также внедрение эффективных механизмов общественного контроля. Особое внимание уделяется государственной поддержке ННО и

---

[1] Fung A. Varieties of Participation in Complex Governance // Public Administration Review. – 2006. – Vol. 66, suppl. 1. – P. 66–75; Fox J.A. Social Accountability: What Does the Evidence Really Say? // World Development. – 2015. – Vol. 72. – P. 346–361;Bovens M. Analysing and Assessing Accountability: A Conceptual Framework // European Law Journal. – 2007. – Vol. 13, № 4. – P. 447–468.

[2] Stanford University. Center on Democracy, Development and the Rule of Law (CDDRL). Research Programs. – URL: https://cddrl.fsi.stanford.edu/research (дата обращения: 15.11.2026).

[3] 1. Fung A. Varieties of Participation in Complex Governance // Public Administration Review. – 2006. – Vol. 66, Issue s1. – P. 66–75. – DOI: 10.1111/j.1540-6210.2006.00667.x
2. Fox J.A. Social Accountability: What Does the Evidence Really Say? // World Development. – 2015. – Vol. 72. – P. 346–361. – DOI: 10.1016/j.worlddev.2015.03.011

стимулированию их активности в разработке и реализации общественно значимых инициатив, направленных на решение актуальных социальных проблем и выработку конструктивных предложений. В этом контексте важное значение приобретает внедрение практики предоставления грантов Общественным фондом по поддержке негосударственных некоммерческих организаций и других институтов гражданского общества при Олий Мажлисе Республики Узбекистан на проекты, связанные с созданием, укреплением материально-технической базы и обеспечением устойчивой деятельности таких учреждений, как хосписы[4]. Как отметил Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев в своём выступлении на 78-й сессии Генеральной Ассамблеи ООН, развитие человеческого капитала является одной из стратегических задач страны, а доступное и качественное образование для всех – наиболее эффективным фактором искоренения бедности[5]. Эти положения нашли отражение во внутренней повестке: 2024 год был объявлен Годом поддержки молодёжи и предпринимательства, что подчёркивает приоритет вовлечения населения в процессы государственного управления, создания рабочих мест, развития малого и среднего бизнеса и стимулирования гражданской активности.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, определенных в Указах Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года № УП-4947 «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», № УП-6181 от 4 марта 2021 года «Об утверждении Концепции развития гражданского общества в 2021–2025 годах», № УП-158 от 11 сентября 2023 года «О Стратегии “Узбекистан – 2030”» и № УП-71 от 21 апреля 2025 года «О мерах эффективной организации исполнения приоритетных задач, определённых для дальнейшего совершенствования системы противодействия коррупции». Правовую основу данных процессов составляют такие законы, как Закон Республики Узбекистан от 25 сентября 2014 года № ЗРУ-376 «О социальном партнёрстве», от 3 января 2007 года № ЗРУ-76 «О гарантиях деятельности негосударственных некоммерческих организаций», от 29 августа 2003 года № 527-II «Об общественных фондах» и от 2 мая 2007 года № ЗРУ-96 «О благотворительности», а также другие нормативные акты, регулирующие деятельность институтов гражданского общества.

Соответствие исследований приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики. Данное исследование связано с приоритетными направлениями развития науки и технологии в Республике Узбекистан: I. «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

Степень изученности проблемы. Проблематика формирования и развития гражданского общества, роли негосударственных некоммерческих

